

## AYIRBOSHLASH SHARTNOMASINING BOSHQA SHARTNOMA TURLARIDAN FARQLI VA O'XSHASH JIHLTLARI

**Xudoynazarova Ozoda Mizrob qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Telefon: +998(93) 506 22 06

[22hamza06@mail.ru](mailto:22hamza06@mail.ru)

**Ravshanova Oyshabonu Salom qizi**

Navoiy viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

Telefon: +998(94) 251 66 55

[ravshanova.oysha1@gmail.com](mailto:ravshanova.oysha1@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11214842>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ayirboshlash shartnomasi, taraflarning huquq va majburiyatlari, shartnomaning shakli, muddati va taraflarning javobgarlik masalasi muhokama etilgan. Shuningdek, mazkur masala yuzasidan ba'zi bir xorijiy tajribalar tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy va yuridik shaxslar, barter, huquqiy munosabat, tovarning bahosi, huquqiy belgilar, oldi-sotdi shartnomasi, bazaviy hisoblash miqdori, shartnoma rekvizitlari, assortiment, tovar uchun belgilangan haq, yetkazilgan zarar .

### THE DIFFERENT AND SIMILAR ASPECTS OF THE EXCHANGE AGREEMENT FROM OTHER TYPES OF AGREEMENT

**Abstract.** This article discusses the exchange contract, the rights and obligations of the parties, the form, term and liability of the parties. Also, some foreign experiences on this issue were analyzed.

**Keywords:** Individuals and legal entities, barter, legal relationship, price of goods, legal signs, contract of sale, basic calculation amount, contract details, assortment, fixed fee for goods, damages.

### ОТЛИЧИЯ И СХОЖИЕ АСПЕКТЫ ВАЛЮТНОГО ДОГОВОРА ОТ ДРУГИХ ВИДОВ ДОГОВОРОВ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается договор мены, права и обязанности сторон, форма, срок и ответственность сторон. Также был проанализирован некоторый зарубежный опыт по данному вопросу.

**Ключевые слова:** Физические и юридические лица, бартер, правоотношения, цена товара, юридические признаки, договор купли-продажи, базовая расчетная сумма, реквизиты договора, ассортимент, фиксированная плата за товар, ущерб.


Ko'pgina holatlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan mablag'lar ishtirokisiz amalga oshiriladigan xizmatlar yoki tovarlar almashinuvi mavjud. Bu barter shartnomasi deb nomlanadi.

Tarmoq texnologiyalari va zamonaviy transport vositalarining paydo bo'lishi bilan bunday tizim yanada ommalashdi. Ko'pincha odamlar auksionlar yoki savdo va moliyaviy bozorlar orqali o'zaro muloqotni amalga oshirishadi. Bevosita barter tushunchasiga to'xtatilib o'tadigan bo'lsak, barter – bu ayirboshlash shartnomasi bo'lib, unda shartnoma obyektlariga bo'lgan mulk huquqi puldan foydalanilmagan holda uning taraflari o'rtasida topshiriladi.

*Ayirboshlash shartnomasiga muvofiq har bir taraf boshqa tarafga bir tovarni boshqa tovarga almashtirish yo'li bilan mulk qilib topshirish majburiyatini oladi. Ayirboshlash shartnomasiga nisbatan tegishincha oldi-sotdi to'g'risidagi qoidalar qo'llanadi, basharti bu ayirboshlash mohiyatiga zid kelmasa (FK 497-moddasi).*

Mazkur qoidadan shuni tushunish mumkinki, shartnomada ishtirok etayotgan bir taraf ikkinchi bir tarafga olayotgan tovari uchun mazkur tovar miqdoriga va bahosiga teng keladigan tovarni yoki xizmatni ko'rsatib berishi lozim. Mazkur shartnoma turi ham boshqa shartnoma turlari bilan deyarli bir xil, faqat ushbu turida huquqiy munosabat tovarning summasidan emas, unga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Ayirboshlash shartnomasining yana bir xususiyati tovarning bahosi tahminiy belgilanadi va o'zgaruvchan bo'ladi. Taraflar qabul qilish va topshirish paytida tafovut vujudga keladigan bo'lsa o'rtadagi farqni to'lashga majbur bo'ladilar. Mazkur huquqiy munosabatda e'tibor qaratadigan asosiy narsa shartnomaning predmeti muomaladagi, ayni paytda kishilarning ehtiyojini qondira oladigan narsa bo'lishi lozim.

Ayirboshlash shartnomasining quyidagi huquqiy belgilari mavjud:



Ayirboshlash shartnomasining o'ziga xos afzalliklari, hamda kamchiliklar mavjud.

**Afzalliklari:**

- tovar aylanmasi yaxshilanadi,
- omborda qolib ketayotgan qoldiq tovarlardan va nolikvid tovarlardan xalos bo'lish va ayrim hollarda – kapitalni saqlab qolish imkoniyati vujudga keladi,
- talab va taklif samarali rag'batlantiriladi;
- kompaniyaning pul mablag'lari o'z byudjetida saqlanadi.
- kreditlar, qarzlarni olish zarurati bo'lmaydi.

**Kamchiliklari:**

- tovarlar (xizmatlar) bozori yetarli darajada rivojlanmagan sharoitlarda tovarlar va xizmatlarni adolatli baholashda qarama-qarshiliklar vujudga keladi;
- tovar ayirboshlash operatsiyalarining katta hajmida bir-biriga to'g'ri keladigan takliflarni tanlab olishda qiyinchiliklar bo'ladi;

- import-eksport operatsiyalarini amalga oshirish muddatlari bo'yicha qo'shimcha cheklovlar bois barter bitimlarini amalga oshirishda murakkabliklar vujudga keladi;

- soliq solish bilan bog'liq muammolar bo'ladi va barter operatsiyalari bilan bog'liq soliq qarzdorligining oshishiga va tegishincha, soliqlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun sanksiyalarga olib kelishi mumkin.

Ba'zi bir turdagi ayirboshlash shartnomalari notarial tasdiqlanishi lozim.

Xususan, qonunda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan avtomototransport vositalari ayirboshlash shartnomasining predmetiga aylanganda notarial idora tomonidan mazkur shartnoma tasdiqlanishni talab etadi.

## **2. Ayirboshlash shartnomasida belgilangan taraflarning huquq va majburiyatlari**

Ayirboshlash shartnomasida taraflar jismoniy shaxs ham yuridik shaxs ham bo'lishi mumkin. Mazkur shartnoma turida taraflar uchun belgilangan qoidalar oldi-sotdi shartnomasida belgilangan talablar bilan deyarli bir xil. Faqat farq qiladigan jihati shartnomada qatnashuvchi tomonlar bir vaqtning o'zida ham sotuvchi, ham sotib oluvchi bo'lishlari mumkin. Taraf sifatida jismoniy shaxs ishtirok etganda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalar amal qiladi. Taraf sifatida yuridik shaxs ishtirok etganda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 9-iyulda qabul qilingan "Barter asosida amalga oshiriladigan eksport-import barter operatsiyalari bo'yicha tartib buzilishlari suiiste'molliklarga chek qo'yish to'g'risidagi 5286-son Farmoniga asosan ayirboshlash shartnomasi bo'yicha fuqaroviy huquqiy munosabatlar amalga oshiriladi.

Ayirboshlash shartnomasiga asosan taraflar quyidagi huquq va majburiyatlarga ega:

- 1) ayirboshlanayotgan tovarni o'z vaqtida, kelishilgan tartibda qabul qilish;
- 2) qabul qilingan tovar evaziga ayirboshlanishi lozim bo'lgan tovarni o'z vaqtida topshirish;

- 3) topshirilayotgan tovarlarning sifati, assortimenti, yaxshi bo'lishini ta'minlash;

- 4) shartnoma shartlari qo'pol ravishda buzilganda bir taraflama bekor qilish.

Ayirboshlash shartnomasi bo'yicha boshqa tarafdin tovar olguniga qadar birinchi bo'lib tovarni topshirgan tarafning manfaatlari shartnomada belgilangan talablarga muvofiq himoya qilinadi.

Ayirboshlash shartnomasi predmetiga nisbatan mulk huquqi taraflar belgilangan huquq va majburiyatlarni to'laqonli bajarganlaridan so'ng vujudga keladi. Buni doim ham bir vaqtning o'zida amalga oshirishning imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Xususan, mulk ayirboshlanayotganida ayirboshlash ishtirokchilarining mulk huquqi bir vaqtda emas, balki har bir taraf tomonidan ro'yxatdan o'tkazish amalga oshirilganidan so'ng o'tishi belgilanishi lozim.

## **3. Ayirboshlash shartnomasi shakli, muddati va shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun taraflarning javobgarligi.**

Fuqarolik qonunchiligida belgilangan qoidalarga asosan, umumiy tartibda fuqaroviy shartnomalar bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravarigacha bo'lgan miqdorda bo'lsa va taraflar sifatida fuqarolar ishtirok etayotgan bo'lsa og'zaki tartibda tuzilishiga yo'l qo'yiladi.

Og'zaki tartibda bitimlar tuzish har taraflama oson va qulay bo'lishi mumkin. Ammo kelajakda tomonlar o'rtasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa mazkur shartnomaning tuzilganligini isbotlash va guvohlantirish talab etiladi. Quyidagi holatlarda shartnomalar yozma tuzilishi lozim:

1) yuridik shaxslarning o‘zaro va fuqarolar bilan bitimlari;

2) fuqarolar o‘rtasidagi belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravaridan ortiq summadagi bitimlar, qonunda belgilangan hollarda esa — bitim summasidan qat’i nazar, boshqa bitimlar (FK 108-m).

Ayrim turdagi, xususan, ayirboshlash shartnomasi predmeti ko‘chmas mulk, yer uchastkalari, avtomototransport vositalari bo‘lgan taqdirda mazkur shartnomalar notarial tasdiqlanishni talab etadi.

Nafaqat ayirboshlash shartnomasida balki har qanday shartnomada quyidagi rekvizitlar bo‘lishi kerak:

- raqami va xulosa sanasi;
- yagona hujjat shaklida ro‘yxatdan o‘tkazish, xalqaro shartnomalar hisobiga tuzilgan operatsiyalar bundan mustasno;
- tovar yoki xizmatlar ro‘yxati, narxlari va yetkazib berish shartlari, shartlar bajarilmaganda da’vo arizasi berish tartibi.

Shartnoma shakli uchun belgilangan talablarga rioya qilmaslik O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 109, 112-moddalarida belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Ayirboshlash shartnomasi uchun qonunchilikda muayyan muddat qayd etilmagan va bu holat taraflarning kelishuviga havola qilingan. Ayirboshlash shartnomasiga asosan belgilangan huquq va majburiyatlarni bajarmaslik holatlari uchun oldi-sotdi shartnomasida qayd etilgan javobgarlik tadbiri etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 393-moddasida belgilangan umumiy qoidalar xususan, sotuvchi tovarni sotib oluvchiga uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan ozod holda topshirishi shart, sotib oluvchi uchinchi shaxslarning huquqlari bo‘lgan tovarni qabul qilishga rozilik bergan hollar bundan mustasno.<sup>1</sup>

Ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha barter qilinayotgan tovarlarning miqdori, assortimenti, sifati, tovarning but holatda ekanligi eng muhim omil hisoblanadi. Tovarni topshiruvchi tomon ayirboshlash shartnomasida belgilangan talablarni buzib belgilangan miqdordan kam tovar olib kelsa, sifati yaxshi bo‘lmasa, tovarni qabul qiluvchi tomon tovarning miqdorini to‘liq qilib berishni, shuningdek, belgilangan sifatda tovarni topshirilishini talab qilish huquqiga ega.

Belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik tovarni olib qo‘yishning quyidagi oqibatlarini keltirib chiqaradi:

a) haq bo‘lgan taraf undan olingan tovarni ayirboshlash uchun topshirilgan tovarni qaytarib berishni talab qilish huquqiga ega;

b) yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega. Mazkur holatda zarar deganda, haqiqiy zarar (masalan, haq taraf tomonidan tovarni yetkazib berish, saqlash, yuklash uchun qilingan xarajatlar), shuningdek, boy berilgan foyda tushuniladi.

E’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yana bir holat, ayirboshlash shartnomasi bo‘yicha javobgarlik faqat bir tomonlama emas, har ikki tomon uchun ham belgilanishi ham mumkin.

---

<sup>1</sup> <http://www.lex.uz>

#### REFERENCES

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. [www.legalcity.uz](http://www.legalcity.uz)
3. [www.constitution.uz](http://www.constitution.uz).
4. [www.pravacheloveka.uz](http://www.pravacheloveka.uz).
5. [www.norma.uz](http://www.norma.uz).
6. [www.advice.uz](http://www.advice.uz).